

Oilaviy munosabatlarni o'smirlar deviant xulq-atvoriga ta'siri

Dilrabo Murodillayevna Mo'minova
dilrabomuminova2018@gmail.com
University of Business and Science

Annotatsiya: O'smirlik davrida deviant xulq atvorning kelib chiqishi sabablari va oilaviy munosabatlarning shaxs shakllanishidagi ahamiyati haqida olimlarning nazariyalari taxlil qilingan. O'smir shaxsining shakllanishida ota-ona munosabatlarida demokratik munosabatlarni yo'qligi va xamkorlikning yetishmasligi farzanda og'ishgan xulqni keltirib chiqarishi borasida fikr va mulohazalar bildirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: tajribasizlik, qaramlik psixotramatik, g'amxorlik, zo'rvonlik, ichki xotirjamlik, bezovtalik, extiyoj

The influence of family relationships on adolescent deviant behavior

Dilrabo Murodillayevna Mo'minova
dilrabomuminova2018@gmail.com
University of Business and Science

Abstract: The theories of scientists about the causes of deviant behavior during adolescence and the importance of family relationships in the formation of personality are analyzed. Opinions and comments are expressed on the fact that the lack of democratic relations and lack of cooperation in parental relationships in the formation of the adolescent personality can cause deviant behavior in the child.

Keywords: inexperience, dependency, psychotrauma, care, violence, inner peace, anxiety, need

Kirish (Introduction) Oila va oilada bola tarbiyasi masalasi Abu Ali ibn Sinoning ilmiy merosida ham muhim o'rin egallaydi. Shu o'rinda Ibn Sinoning ham qarashlarini keltirishimiz mumkin. U bola tarbiyasida oila boshlig'i - otaning roliga alohida e'tibor beradi. "Agar oilada, deydi u, - oila boshlig'i tajribasizlik, no'noqlik qilsa, u oila a'zolarini yaxshi tarbiyalay olmaydi va oqibatda bundan yomon natijalar kelib chiqishi mumkin". Bola tarbiyasi yaxshi yo'lga qo'yilsa, oila baxtli bo'ladi. Oilaning eng muhim vazifasi bola tarbiyasi hisoblanadi. Ota-ona kim bo'lishidan qat'iy nazar bu vazifani ma'suliyat bilan ado etishi lozim. Abu Ali ibn Sino farzand

tarbiyasi va tarbiya usullari haqida qimmatli fikrlarini bildirgan. "Bolani tarbiyalash oila ota-onaning asosiy maqsadi va vazifasidir", "O'z kamchiliklarini tuzatishga qodir bo'lgan ota-ona tarbiyachi bo'lishi mumkin" [1].

O'smirning rivojlanish jarayonida oilaviy munosabatlarning xususiyatlari uning xulq-atvorini shakllanishiga o'ziga xos tarzda ta'sir qiladi. Oilada shakllangan qadriyatlar tizimining yo'qligi, ota-onalar tomonidan o'smirning psixologik xususiyatlarini yetarlicha baholamaslik, uning xatti-harakatlarining huquqbuzarlik shakllarining namoyon bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlarning taxlili (Literature review) Voyaga yetish jarayonida bolaning ota-onasi bilan munosabatlari sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tariladi. O'smirlik davrida esa ularning asosiy vazifasi o'smirning o'ziga xosligini, o'zini-o'zi belgilashini anglash, lekin ayni paytda oilani qo'llab-quvvatlash va qo'shilishdir. Shu bilan birga, ota-onalarning o'smir qizlarga bo'lgan munosabati o'smirlarga ham, o'ziga ham talablarni susaytirmasdan, unga chuqur hurmat bilan uyg'unlashishi kerak. A.S. Makarenko ta'kidlaganidek, «ota-onaning o'ziga bo'lgan talabi, ota-onaning o'z oilasiga bo'lgan hurmati, ularni har bir bosadigan qadami ustidan ota-ona nazorati ta'limning birinchi va eng muhim usulidir! Pedagog shaxsida katta nuqsonlar bo'lsa, hech qanday retsept yordam bermaydi» [7].

M.Bouenning fikricha, oila hissiy tizimdir, er va xotin, ota-onalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlar o'zaro bog'liq bo'lib, oilaning shakllanishidagi rolini o'rganishda muhim ahamiyatga egadir [2].

Oilada normal faoliyat ko'rsatishi bilan o'smirlar tashqi dunyo bilan munosabatda bo'lganda xavfsizlikka bo'lgan asosiy ehtiyojni ta'minlaydi, umidsizlik va bezovtalik paytlarida qulaylik manbai bo'lib, psixotravmatik vaziyatlarda yuzaga keladigan tashvish hissini kamaytirishga yordam beradi. O'smirning ushbu ehtiyojlarini qondirmaslik odatiy qaramlik va bog'lanish munosabatlarining salbiy o'zgarishiga va natijada deviant xatti-harakatlarga olib keladi.

O'smirning delinkvent xulq-atvor sabablarini uning shaxsi rivojlanishiga ta'siri nuqtai nazaridan o'rganish, oilaning noto'g'ri ishlashi, bolaning ota-onani mehr-muhabbatiga bo'lgan ehtiyojining qondirilmaganligi, ota-onadan birining yo'qolishi kabi omillar, ota yoki onaning (o'lim, ajralish), ota-onaning o'smirlarga qo'yadigan talablarining yetarli emasligi va mos kelmasligi ichki xotirjamlik uchun an'anaviy hisoblanadi. Shuningdek, o'smirlarda delinkvent xatti-harakatlarining prognozlarini o'rganish doirasida E.V. Zmanovskaya oilaning roli bilan bog'liq va shaxsning sotsializatsiyasini buzadigan omillarni qayd etadi. Eng muhimlari: "ota-onalarning funksiyalarini buzish (gender g'amxo'rlik, yaqinlik, qo'llab-quvvatlash, talablar); oiladagi buzg'unchi nizolar; oilaviy zo'ravonlik; ota-onadan birining yo'qolishi» deb ta'kidlaydi [3].

Taxlil va natijalar (Analysis and results) Biz ota-ona ustanovkasi farzandda deviant xulq-atvor shakllanishiga qay darajada ta'sir qilishi mumkinligini aniqlashni ham tadqiqotda vazifa sifatida belgilagan edik. Buning uchun "Ota-ona ustanovkalari va reaksiyalari o'lchovi" (PARY) metodikasi va deviant xulq-atvor metodikasi shkalalari Pirson mezonini asosida o'zaro korrelyatsiya qilindi, natijalar 1-jadvalda aks ettirildi.

1-jadval

8-sinf o'quvchilarida deviant xulq-atvorning ota-onalik ustanovkalari bilan korrelyatsion aloqadorligi (Pirson korrelyatsiya koeffitsiyenti bo'yicha) (n=98)

Metodika shkalalari	Deviant xulq							
	Faktorlar	Ijt.xoh.	Meyor.vaqoi.	Additiv axl.	O'z.o'z.zar	Tajovuzkor.	Hissiy reaks.	Ddelinkvent
Ota-ona ustanovkalari va reaksiyalari o'lchovi	I-Faktor	-0,05	0,07	0,12	0,19	-0,02	-0,07	0,02
	II-Faktor	-0,20	0,01	0,20	0,10	0,27**	0,07	0,06
	III-Faktor	-0,009	-0,05	-0,10	-0,02	-0,09	-0,04	-0,08

Farzandga o'z fikrini bayon etish imkoniyatini berish esa unda agressivlikni pasaytiradi. Boshqa shkalalar orasida ahamiyatli bog'lanishlar aniqlanmadi.

Ota-onalar nazoratining ekstremal shakllari, haddan tashqari himoyalanişdan tortib, o'smirning e'tiborsiz qoladigan holatigacha, I.Yu.Kulagina, bola-ota-ona munosabatlarida qiyinchiliklarni va oilada nizolarni keltirib chiqaradi deb takidlaydi. Ota-onalarning befarqligi va shafqatsizligi, o'smirga qo'yiladigan talablar va hissiy sovuqlik oila a'zolari o'rtasidagi ishonchni yo'qotishiga olib keladi va muloqotda qiyinchiliklar tug'diradi. Shu bilan birga, o'smirlarning sevgiga bo'lgan ehtiyoji kuchli bo'lib, shafqatsizlik va hissiy yetuklikni namoyon qiladi.

Yu.B.Gippenreyterning fikrlariga ko'ra, muammoli, qiyin, ezilgan, baxtsiz o'smirlar doimo oilada noto'g'ri rivojlangan munosabatlar natijasidir deb ta'kidlaydi [4].

A.B.Petrovaning so'zlariga ko'ra, deviant xulqqa moyillik tug'ma sifat emas, balki inson hayotining birinchi kunlaridanoq oiladagi hissiy munosabatlarga bog'liq [6].

Bundan tashqari, o'smirlarning xatti-harakatlaridagi og'ishlarning sabablarini aniqlashda olimlar nafaqat o'smir oilasidagi hozirgi vaziyatni, balki ota-onalarning oilaviy tarixini, qoidalar va stereotiplarni o'rganib, ota-onalarning muammolariga va oiladagi o'zaro munosabatlarga e'tibor berishdi. E.G.Eydemiller ota-onalarning o'smir hisobidan hal qiladigan va ko'pincha ota-onalar tarbiyasi uslubidagi buzilishlarning sabablari bo'lgan muammolariga ishora qiladi. Bu oilaviy ta'limning "ota-onalik tuyg'ulari doirasini kengaytirish, o'spirinda farzandlik fazilatlarini afzal

ko'rish, ota-onalarning ta'limdagi noaniqligi, bolani yo'qotishdan qo'rqish, o'z nomaqbul fazilatlarini o'spiringa aks ettirish" kabi og'ishlarda namoyon bo'ladi [5].

Olimlarning tadqiqotlarida, tashqi omillar bilan bog'liq shaxsning delinkvent xulq-atvorining shakllanishi, bolalarning g'amxo'rlik va mehrga bo'lgan ehtiyoji ota-ona tomonidan qondirilmaganligini, yani e'tiborsiz ona yoki haddan tashqari zo'ravon ota bolada erta travmatik tajribaga sabab bo'ladi. Jazolardan doimiy foydalanish va oilada jismoniy zo'ravonlik o'smirlik davrida shaxsning shakllanishiga salbiy ta'sir qiladi.

Bola-ota-ona munosabatlarining salbiy shakllari mavjud oilada masalan, otani ta'sirining yetarli emasligi yoki yo'qligi, o'smir istaklari va xohishlarining qondirilmashligi, ota-onalar talabchanligining yetishmasligi yoki ushbu talablarning nomuvofiqligi, o'smirda deviant xulqqa moyilligining kelib chiqishiga sabab bo'ladi [3].

Xulosalar va takliflar (Conclusion Recommendations). Shunday qilib, ota-ona ustanovkasida demokratik munosabatlarning yo'qligi farzandda agressivlikni orttiradi. Bunda ota-onalarning qizi bilan muloqotda tenglikdan voz kechishi, bolaga o'z fikrini aytish imkoniyatini bermaslik, faolligini rag'batlantirmaslik, ota-ona va bola o'rtasidagi o'rtoqlarcha munosabatdan voz kechishlar farzandda o'z navbatida agressivlikni ham kuchaytiradi.

O'smirlar jinoyatining asosiy sabablari yashash, o'qish yoki ish joyidagi muhitning salbiy ta'siri, o'qishni tashlab ketgan o'smirlar, bo'sh vaqtni to'g'ri taqsimlay olmaslik, o'smirlarning noto'g'ri tarbiyalashga olib keluvchi shart-sharoitlar, yoshi katta jinoyatchilarning salbiy ta'siri, zo'ravonlik va noqonuniy harakatlarni ifodalovchi kitoblar va kinofilmlar ta'siri, bolalar xulq-atvorni nazoratsiz qoldirish, madaniy hordiq chiqarishni tashkil etishdagi kamchiliklar. Tarbiyasi qiyinlikning yuksak shakli bo'lmish deviantlik o'smir qizlar orasida kam bo'lsa-da (5,5%) uchraydi. Shularning 55 foizdan ortig'ida delikventlikning quyi darajasi aniqlandi. Deviantlik namoyon bo'lishida kichik va katta o'smirlarda ahamiyatli farqlar aniqlanmadi. Ota-ona ustanovkasida demokratik munosabatlarning yo'qligi farzandda agressivlikni orttiradi. Bunda ota-onalarning qizi bilan muloqotda tenglikdan voz kechishi, bolaga o'z fikrini aytish imkoniyatini bermaslik, faolligini rag'batlantirmaslik, ota-ona va bola o'rtasidagi o'rtoqlarcha munosabatdan voz kechishlar farzandda o'z navbatida agressivlikni ham kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ibn sino ijodida oila tarbiyasi. <https://genderi.org/abu-ali-ibn-sino-ijodida-oila-tarbiyasi.html?page=3>
2. Боуэн М. Теория семейных систем. <https://www.livelib.ru/author/308156-myurrej-bouen>

3. Дмитриев М.Г., Белов В.Г., Парфенов Ю.А. Практикум по психодиагностике девиантного поведения у трудных подростков. - СПб.: ПНИ, 2008. - 279 с.
4. Гишинский Л. И. Социология девиантного поведения. - СПб.: Питер, 1993. -268 с.
5. Эйдемиллер Э. Г. Психология и психотерапия семьи: моногр.– 4-е изд., испр. и доп. – Санкт-Петербург: Питер, 2009. – 672 с.
6. Петрова А.В. Психологическая коррекция и профилактика агрессивных форм поведения несовершеннолетних с девиантным поведением. <https://readrate.com/rus/books/psikhologicheskaya-korrekcija-i-profilaktika-agressivnykh-form-povedeniya-nesovershennoletnikh-s-de>
7. <https://externat.foxford.ru/polezno-znat/dobrym-slovom-i-pistoletom-metodika-vospitaniya-antona-makarenko>
8. Sh.To'ychiyeva"psixologiya" jurnali, N4 -son.2025 yil, 331-333 betlar
9. Jurayev, X. O. (2026). Xarakter aksentuatsiya konsepsiyasini ijtimoiy psixologik jixatdan qo 'llash sohalari. Science and Education, 7(1), 1050-1055.
10. Odilboyevich, J. X. (2026). SHAXSGA MOTIVATSION YONDASHUVNING PSIXOLOGIK JIXATLARI (O 'SMIRLIK YOSH DAVRI MISOLIDA). Лучшие интеллектуальные исследования, 61(1), 29-35